

INGLIZ TILI GISTOLOGIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA XUSUSIYATLARI

Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) f.f.f.d, dotsent

[E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru](mailto:muqumjon.axunov@bk.ru)

Komilova Xonzoda Muzaffar qizi

ADCHTI ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

[E-mail: xonzodakomilova181@gmail.com](mailto:xonzodakomilova181@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o'zbek tillarida gistologik terminologiyasining shakllanishi va xususiyatlari talqinlangan. Ingliz tilida mavjud bo'lgan gistologik terminlarni hosil qilishda salmoqli foydalaniladigan prefikslarni ko'rib chiqildi. Gistologik terminlarni shakllantirishda prefiksatsiya usuli tibbiyot sohasini chuqur o'zlashtirmoqchi bo'lgan talabalar uchun asosiy dolzarb aniqlangan.

Kalitso'zlar: gistologik, terminologiya, ensiklopedik, pnevmoniya, atama, lotin tilida.

Ma'lumki, zamonaviy tibbiyotda gistologiya sohasi vakillari uchun lotin tilni bilish ahamiyatlidir, negaki hozirgi fan va texnikaning jadal rivojlanishi va hamda texnologiyalarning nomlanishlari, xar bitta tibbiyotdagi qo'llaniladigan terminlarimiz lotin tilidan kirib kelishi mukammal va puxta bilimni talabetadi. Barchamizga ma'lumki, xozirgi kunda pedagogik ta'lim berish usul va vositalari keskin o'zgarib bormoqda, ya'ni tibbiyot instituti talabalariga lotin tillarni o'qitish jarayonida o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiya hamda axborot vositalaridan samarali foydalanish zarurligini bugungi kun hayoti taqozo etmoqda. Xozirgi kunda ta'lim berishning faqat an'naviy usullarini qo'llash bilan samarali natijalarga erishib bo'lmaydi³⁵.

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va eng asosiysi - kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bundan bir necha yil oldin biron - bir lotin tilidagi ma'lumotlarni tarjima qilish uchun mutaxassislariga murojat etilar edi. Bugun esa har bir tibbiyot oliy o'quv yurtida puhta bilimga ega, malakali lotin tili o'qituvchilari faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari o'qituvchilari orasida malaka oshirish kurslari, seminar va tajriba almashish darslari tashkil qilinmoqda. Shuningdek, har bir oliygohda, shuningdek Tibbiyot institutlarida hamo'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda o'qituvchilar uchun ta'lim davomida lotin tillarni o'rganish kurslari tashkil qilinmoqda.

³⁵ Нормуродова Н., Уралова Ч., Олимзода П. Роль дополнительных занятий в обучении иностранному языку //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/С. – С. 12-16

Ko'plab ta'limotlar: fizika, kimyo, astronomiya va xususan anatomiya, botanika hamda butun tibbiyot terminlari uchun yunon tili juda zarur.

Lotin tili va tibbiy terminlar asosi biz uchun juda muhim fan. Shuning uchun avvalambor biz uni o'rganishdan qanday maqsad borligini, umumiy ko'rinishda uning hajmi va tarkibini, gistologiyada bir necha yuz yilliklar mobaynida nega aynan lotin tili qo'llanilayotganini yoritib olishimiz lozim. Gistologik termin, ilmiy tushuncha, fan, texnika va sanoat sohasida muvaffaqiyatli ish olib borayotgan mutaxassis uchun terminlar mohiyatini maxsus leksika, yoki boshqacha aytganda terminologiyani to'g'ri tushinishi hamda undan aniq foydalanishi zarur. Terminning asosiy vazifasi ilmiy tushunchani faqat o'ziga xos ifodalashdan iborat. Gistologik termin sifatida alohida yakka so'z (organizm, hujayra, organ, gen, kasallik, appenditsit, fluorografiya) bilan bir qatorda so'z birikmasi (ko'k rak qafasi, yensa suyagi, gipertonik kasallik, sanitar ishlov berish, radiatsion gigiyena) ham bo'lishi mumkin. Kundalik hayotda ishlatiladigan adabiy tilning ommabop so'zlaridan farqli o'laroq terminlarda ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalar ifodalanadi³⁶.

Maxsus (terminologik), ensiklopedik lug'atlarda terminlar ta'riflar bilan boyitilgan, misol uchun: Pnevmoniya mustaqil kasallik sifatida yoki biron-bir kasallik asorati sifatida hosil bo'luvchi o'pka to'qimalarining yallig'lanish jarayoni. Mutaxassis ham, mutaxassis bo'lmagan shaxs ham umumadabiy til so'zlari va so'z birikmalaridan teng foydalansada, mutaxassis bo'lmagan shaxsdan farqli ravishda mutaxassis definitsiyaga ko'ra baho berish mumkin bo'lgan ilmiy tushuncha mohiyatini biladi, misol uchun: pnevmoniya, sil, skleroz, kardiogramma, stress va boshqalar. Ilmiy tushuncha mohiyatini bilish ushbu tushuncha (termin) ni boshqalariga bog'lash, fanning tushunchalar tizimidan ma'lum bir o'rin ajratish demakdir. Definitsiyada faqat ma'lum bir bosqichdagina ushbu bog'liqlik va o'rin namoyon bo'ladi.

Mazkur ishining maqsadlaridan biri - gistologik terminlar so'z yasallishining ba'zi umumiy tushunchalarini, gistologik terminlarning tarkibiy qismlarini, prefikslarni gistologik terminlar yasallishidagi o'rnini ko'rsatishni va klinik atamalar shakllantirishda prefikslarni ishlatilishini o'qitishda foydalaniladigan samarali metodlar va materiallarni taqdim etishdan iborat. Gistologik terminlarni shakllantirishda prefiksatsiya usuli tibbiyot sohasini chuqur o'zlashtirmoqchi bo'lgan talabalar uchun asosiy dolzarb masalalaridan biri bo'lib, o'quv jarayonida talabalarni tibbiy atamalarni to'g'ri tarjima qilish va kasbga tayyorlash, talabalarda yuksak darajadagi kasbiy bilimdonlik fazilatlarini shakllantirish, ta'lim sifati va samaradorligiga erishishda pedagog-talaba munosabatlarini

³⁶ Social-cultural characteristics of Uzbek and English medical speech Yorova Sayora Karimovna, An English Teacher of the Department Languages, Samarkand State Medical Institute, International Journal on Integrated Education, eISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785

muvoqlashtirish va ta'lim jarayoni natijaviyligini ta'minlashning nazariy va amaliy masalalari to'liq ochib berishda yordam beradi³⁷.

Hozirgi zamon gistologik terminlari – keng qamrovli va murakkab atamalardan deb hisoblash mumkin. Bunda bir necha ming yillik so'zlar va birikmalar mujassamlashgan. Tibbiy va biologik atamalarda ko'p asrlik an'analarni lotin tilining ishlatilishida alohida ahamiyatga ega. Lotin tilini o'qitish tibbiy atamalarining asosini o'qitishdan boshlanadi. Lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsa-da, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlari sohasida lotin tilidan keng foydalaniladi. Bu, ayniqsa, tibbiyotda aniq ko'zga tashlanadi, chunki anatomik va davolashga oid atamalar hamda dorilarning nomi lotin tilidadir. Retsept varaqasida hamisha dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko'rsatmalar lotin tilida yoziladi. Prefikslardan misol kelitardigan bulsak, masalan, peri- prefiksi a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni qoplab turgan tashqi qobiq, g'ilof, to'qima, qorin pardani bildiradi: peri-metrium - bachadon seroz (qorin pardaga oid) pardasi; peri-osteum - suyak usti pardasi; peri-bronchitis - bronxni o'rab turuvchi to'qima yallig'lanishi; para-nephritis- buyrak fibroz g'ilofining yallig'lanishi. Para-prefiksi ichki a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni atrofidagi kletchatka (siyrak tolali biriktiruvchi to'qima) ni anglatadi: para-nephritis - buyrak atrofi kletchatkasi yallig'lanishi. Para- prefiksi “normadan og'ish”, “berilgan so'z yasovchi negizdan farqlanuvchi” ikkilamchi ma'nolariga ham ega: par-acusis- eshitish taassurotlarini noto'g'ri yoki o'zgargan idrok qilish; para-struma-qalqon oldi bezlarining bo'qoqni eslatuvchi gipertrofiyasi³⁸. Prefiksatsiya klinik atamalarni shakllantirish usullari bo'yicha pedagogik, uslubiy adabiyotlarni o'rganish va talabalarni klinik atamalarni shakllantirishda prefikslarning o'rni bilan tanishtirish, prefikslarning turlari va tibbiyot atamalarini yasashdagi eng ko'p ishlatiladigan prefikslar haqida ma'lumot berish, “Tibbiy atamalarni shakllantirish usullari” mavzusini o'qitilishi va yoritilishi, texnikasini ko'rsatish, dars davomida qo'llanilgan usullar va metodlardan namuna keltirish tibbiyot talabalarining shu mavzu xakida yetarli ma'lumotlarga ega bulishlari uchun maqsadga muvofiqdir. Quyida ingliz tilida mavjud bo'lgan gistologik terminlarni hosil qilishda salmoqli foydalaniladigan prefikslarni ko'rib chiqamiz.

a – Gr.a or an-, prefix meaning without, not. (agnatha, anapsid)

ab – L.ab-, prefix meaning away from. (Abduction)

abdom – L.abdomen, abdomen (probably from abdo, to cancel). (Abdomen, Abdominal)

acanth – Gr. Akantha, spine, thorn, (Acanthodii)

³⁷ Karimovna , Y. S. . (2022). THE LINGUISTIC ENVIRONMENT IN THE FIELD OF MEDICAL COMMUNICATIONS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 143–147.

³⁸ Ilhomjonovna S.K., Parvina O. Structural-Morphological Characteristics of Binary Tautologisms //International Journal on Orange Technologies. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 23-28.

- acetabul – L.acetabulum, vinegar cup (from acetum, vinegar). (Acetabulum)
- acro – Gr.akros, topmost, extreme. (Acromion)
- actin – Gr.aktin, ray (Actinopterygii)
- ad, af – L.ad- (may be changed to af- before certain words), prefix meaning motion toward. (Adduction, afferent)
- af – See ad. al – L.lala, wing. (Aliform, alisphenoid bone)
- all – Gr.allos, different, other. (Allotheria) allant – Gr. Allas, gen., allontos, sausage. (Allantoic artery, allantois)
- amphi – Gr. Amphi, on both sides of, double. (Amphibian, amphicoelous, Amphioxus)
- an – See a. anc – Gr.ankon, elbow, bend of the arm. (Anconeus muscle)
- ante – L.ante-, prefix meaning in front of, previous to. (Antebrachium, anterior)
- apo- Gr. apo-, prefix meaning away from. (Apophysis)
- apsid- Gr. apos, gen., apidos, a loop. (Anapsid skull)
- arachn- Gr.arachne,spider. (Arachnid, arachnoid membrane)
- archi- Gr. archi-, prefix meaning primitive. (Archinephros, archipallium)
- aryten- Gr.archi-, arytaia, ladle. (Arytenoid cartilage)
- atri- L. atrium, entrance room. (Atrium)
- aur- L.auris, di., auricula, ear. (Auricle) av- L.avis, pl., aves, bird. (Aves, aviary)
- bi, bin – L.bi-, bin-, prefix meaning two. (Biceps muscles, binocular, biped) bi, bio- L.bios, life. (Amphibian, biology)
- brachi- Gr. brachion, upper arm. (Anterbrachium, brachialis muscle, brachium pontis)
- branchi- Cr.branchion, gill. (Branchial, Elasmobranchii)
- bull- Gr.bulla, a bubble, seal. (Tympanic bulla) caec- See cec-. calc- L.calx, gen., calcis, lime, heel. Calcaneus, calcify, calcium)
- caly – Gr. calyx, cup. (Renal calyx)
- capit- L.caput, gen., capitis, dim., capitulum, head. (Capitulum, caput) cardinal- L.cardinalis, principal, red. (Cardinal vein)
- carn- L.caro, gen., carnis, flesh. (Carnal, carnivore, trabeculae carnae)
- carotid- Gr.karotides, large neck arteries (from karoun, to stupefy). (Carotid artery)
- carp- Gr.karpos, wrist. (Carpal, carpus)
- caud- L. cauda, tail. (Caudal, caudofemoralis muscle)
- cav-L. cavus, hollow. (Cavity, vena cava)
- cec-L. caecum, blind intestine, Cecum, ileocecal valve)
- cel- See coel. ceph- Gr. kephale, head. (Cephalic, holocephalic, triceps)
- cer- Gr.keras, horn. (Ceatobranchial, keratin)
- cervic- .cervix, gen., cervicis, neck. (Cervical, cleidocervicalis muscle, uterine cervix)

- chiasm- Gr.chiasma, cross. (Optic chiasma)
choan- Gr. choane, funnel. (Choana)
chol- Gr. chole, bile. (Ductus choledochus)
chondr- Gr. chondros, cartilage. (Chondrichthyes, chondrify, chondrocranium)
chord- L. chorda, string. (Chordae tendineae, Chordata, notochord)
chorio- Gr. khorion, skin, afterbirth. (Chorion, choriod layer of eyeball, choroid plexus) choro- See chorio.
ciner – L. cinereus, the color of ashes (from cinis, ashes). (Incinerate, tuber cinereum)
cingul- L. cingulum, girdle. (Cingulate cortex)
clav- L. clavis. Dim., clavicula, key; also, the clavicle. (Clavicle, subclavian artery)
derm- Gr. derma, skin, leather. (Dermal bone, dermis ostracoderm)
didym- Gr. didymos, testicle. (Epididymis)
encephal- Gr. enkephalos, brain (from en + kephale). (Diencephalon,
gen- L. genu, knee. (Geniculate bodies, genioglossus muscle)
tars- Gr. tarsos, flat surface, sole of foot. (Metatarsal bone, tarsus)

Guvohi bo'lganimizdek, ingliz tilida gistologik terminlar ham uzoq vaqtdan buyon o'rganilib kelinmoqda. Gistologik terminlarning strukturasi va yasalishi xuddi qolgan tibbiy terminlar singari lotin tiligan kelib chiqqanligini misollar orqalib ko'rib chiqdik.

ADABIYOTLAR

1. Bakayev N.B., Toxirova G.I. Hozirgi zamon fransuz tili leksikologiyasi. -Buxoro, 2007. – 289 b
2. G.A. Asilova, O'zbek tili" – T.: ToshDU, 2018. – B.123-126
3. Baxtiyor Omon. Siyosiy yetakchining noiqlik mahorati. – T.: O'zbekiston, 2000.
4. Begmatov E.A., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – T.: Fan, 1999.
5. Dadaboyev.H. O'zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2019 – yil.
6. Tojiev Yo. va b. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: ToshDU, 1994.- B.234
7. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/Sarlavhada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: TDYI nashriyoti, 2005. -178 b.
8. Камолов Ф. Семасиология. –Т.: АДТИ нашірѐти, 1957.–Б. 130.
9. Миртожиев.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент, 2007. –187 б.
10. Нормуродова Н., Уралова Ч., Олимзода П. Роль дополнительных занятий в обучении иностранному языку //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/С. – С. 12-16

11. Чернявскес М.Н. Латенскес яґык с основы медеценскос терменолоґее. - М.: ЗАО «Шеко», 2011.
12. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. –М.: Просвещение. 1972. –С. 56;
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.// A. Madvaliyev tahriri ostida. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 456 b.
14. Xo‘jayeva L.U. Lotin tili. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B.164
15. Xojiyeva A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. - B.99

